



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

O‘ZBEK TILIDA “YIG‘ILISH” LSG LKSEMALARINING SEMANTIK TAHLILI

To‘raxo‘jayeva Adibaxon Xalilullayevna
Qo‘qon davlat universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilining leksik makrosistemasida alohida mikrosistema sifatida mavjud bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy leksikalar tizimi ilk bor tizimli yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida mazkur mikrosistemaning sistemaviy tabiatiga xos xususiyatlar aniqlanib, uning mustaqillik davridagi takomillashuvi va rivojlanish jarayonlari yoritilgan. “Ijtimoiy-siyosiylik” paradigmasiga mansub bo‘lgan “yig‘ilish” arxisemali leksik-semantik guruh leksemalarining integral va differensial semalari komponent tahlil usuli yordamida aniqlangan. Tadqiqot natijalari mazkur leksik birliklarning semantik tuzilishi, o‘zaro munosabatlari hamda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiyadagi o‘rni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: arxisema, sema, integral sema, differensial sema, yig‘ilish.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ ЛСГ “СОБРАНИЕ” В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Турахужаева Адихон Халилullaевна
Кокандский государственный университет, доцент

Аннотация

В данной статье на основе системного подхода впервые исследована система общественно-политической лексики, существующая как самостоятельная микросистема в лексической макросистеме узбекского языка. В ходе исследования выявлены особенности её системной природы, а также показаны процессы совершенствования и развития данной микросистемы в период независимости. На основе компонентного анализа определены интегральные и дифференциальные семы лексем лексико-семантической группы с архисемой «собрание», относящейся к парадигме общественно-политической лексики. Полученные результаты позволяют глубже понять семантическую структуру данных языковых единиц, их взаимосвязи и роль в общественно-политической коммуникации.

Ключевые слова: архисема, sema, интегральная sema, дифференциальная sema, собрание.

SEMANTIC ANALYSIS OF THE LEXEMES OF THE “GATHERING” LEXICAL-SEMANTIC GROUP IN THE UZBEK LANGUAGE

To‘raxo‘jayeva Adibaxon Khalilullayevna
Kokand State University, Associate Professor

Abstract

This article presents the first systematic study of the socio-political lexical system functioning as a distinct microsystem within the lexical macrosystem of the Uzbek language. The research reveals the systemic characteristics of this microsystem and examines its development and transformation during the period of independence. Using componential analysis, the study identifies the integral and differential semantic features of the lexemes belonging to the lexical-semantic group characterized by the archisememe “gathering/meeting” within the socio-political paradigm. The findings contribute to a deeper understanding of the semantic structure of these lexical units, their interrelationships, and their role in socio-political communication.

Keywords: archisememe, seme, integral seme, differential seme, gathering, lexical-semantic group.


OLM tushunchasining paydo bo‘lishi tilshunoslikda lingvistik maydon nazariyasining tug‘ilishi va rivojlanishiga sababchi bo‘ldi. Chunki olam inson ongida muayyan mikroolamlarga, ya‘ni paradigmalariga bo‘lingan holda aks etadi. Inson ongida aks etgan olamdagi ana shu paradigmalar o‘z lisoniy ifodasiga ega bo‘lib, leksik paradigmalarni hosil qiladi. Har qanday tilning leksik sistemasi ma‘lum ma‘no umumiyligi asosida birlashgan bir qancha paradigmalarining o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Ana shunday ma‘no umumiyligi asosida xotiramizda birlashgan lisoniy birliklar paradigmasi lingvistik maydon hisoblanadi. Boshqacha aytganda, ma‘lum ma‘no umumiyligi asosida birlashgan va

belgilanayotgan hodisalarning tushunchaviy, predmetlik yoki vazifaviy o'xshashligini aks ettiruvchi til birliklari yig'indisi lingvistik maydon sifatida belgilanadi [5, 47].

Agar OLM tushunchasi lingvistik maydon nazariyasining paydo bo'lishiga turtki bergan bo'lsa, XX asr so'ngida yuz bergan globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlari bu nazariyaning yanada aktuallashuviga sababchi bo'ldi. Yo. Hamrayeva ta'biri bilan aytganda, "Ilm-fan va texnika taraqqiyoti dunyodagi tillarning lug'at tarkibini keskin o'zgartirib yubordi. Buning pirovard natijasida leksik zaxiradagi yoki ijtimoiy hayotning muayyan sohasidagi barcha leksik birliklarni to'plash va ularni o'zi mansub bo'lgan paradigmalar (semantik maydonlar) ichida izohlab berishga e'tibor yanada kuchaydi" [6, 21].

"Ijtimoiylik" arxisemasi asosida bir mazmuniy maydonga birlashgan leksemalar o'z ichida kichikroq semalar umumiyliги asosida mayda guruhlariga bo'linadi. Ana shunday mikromaydonlardan biri "yig'ilish" semasi asosida birlashgan mikromaydondir. Majlis, anjuman, assambleya, kengash, konferensiya kabi leksemalar ana shu maydonni hosil qiladi. Bu maydonni tashkil etgan a'zolaridan bittasi maydon markazida turadi va ana shu leksema sememasi maydon uchun nom beradi. Bu leksema ekspressiv-emotsional va boshqa qo'shimcha semalardan xoli bo'lgan arxisema hisoblanadi. Maydon markazi qurshovida turgan leksemalar sememasida esa markazga, ya'ni maydonga xos bo'lgan birlashtiruvchi semalar bo'lishi bilan birgalikda, qo'shimcha semalar ham ishtirok etadi.

Mazmuniy maydon uzvlari (komponentlari) uchun umumiy bo'lgan bunday qonuniyat "yig'ilish" arxisemali leksik-semantik maydonda ham o'z ifodasini topadi. Bu leksik-semantik maydon a'zolarining integral va differensial semalarini e'tiborga olgan holda bir butun maydonni quyidagi chizma orqali ifodalash mumkin.



1-chizma

Yuqoridagi chizmada maydon markazini "yig'ilish" leksemasi egallaydi. Bu leksema "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlangan.

Yig'ilish 2. Biror masala yuzasidan tegishli shaxslarning to'planishi; yig'in, majlis. [9, 272]

Izohdan ko'rinib turibdiki, bu leksema sememasi "shaxslarga xoslik", "yig'ilish", "muhojama" semalarini o'z ichiga olgan butunlik sanaladi. Bu semalarning barchasi mazkur maydon tarkibidagi har bir leksema sememasida takrorlanadi. Shu bilan birgalikda markaz qurshovida joylashgan leksemalarda bu semalardan tashqari boshqa semalar ham ishtirok etadi. Ana shu qo'shimcha semalar ushbu leksemalarni qurshovdagi boshqa leksemalardan farqlash uchun xizmat qilish bilan birga, markazdagi leksemadan ham farqlab turadi.

Xususan, maydon tarkibida yig'ilish va kengash leksemalari bir-biriga mazmunan juda yaqin. Shunday bo'lsa ham, ular alohida-alohida leksema bo'lganligidan ma'lum farqlanish belgisiga ega. Ular o'rtasidagi farqlovchi belgi "uslubiy xoslik" semasi sanaladi. Yig'ilish leksemasi uslubiy jihatdan betaraf bo'lib, uslubiy semaga ega emas, markalanmagan. Kengash leksemasi bu belgiga ega, markalangan. Rasmiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da yig'ilish va kengash leksemalari quyidagicha izohlangan:

Yig'ilish 2. Biror masala yuzasidan tegishli shaxslarning to'planishi; yig'in, majlis.

Kengash 2. O'zaro birgalikdagi muhojama, shunday muhojama majlisi; yig'ilish. [9, 352]

Demak, yig'ilish va kengash leksemalari o'zaro privativ zidlangan bo'lib, "uslubiy xoslik" belgisi zidlanishga asos sifatida xizmat qiladi.

Majlis, plenum leksemalari “to‘planish”, “muhokama”, “rasmiylik” semalari bilan “yig‘ilish” mazmuniy maydonining tarkibiga kirsam ham, maydonning boshqa a‘zolaridan “tashkilotga xoslik” semasi bilan farqlanadi. Maydonning boshqa a‘zolari bu belgiga ega emas, markalanmagan, keyingi ikki leksema esa bu belgiga ega, markalangan. Shu bilan birgalikda majlis va plenum leksemalari ham bir-biri bilan mazmunan zidlanadi. Ularning zidlanishi uchun asos bo‘lgan belgi “saylab qo‘yilgan” va “yalpi majlis” semalaridir. Bunga ko‘ra majlis leksemasi mazkur semaga ega emas yoki neytral, plenum leksemasi esa bu belgiga ega.

Ushbu leksemalar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

Majlis — Tashkilot, korxona yoki idora a‘zolarining biror masala muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishi. [9, 523]

Plenum — Biror tashkilotning saylab qo‘yilgan barcha a‘zolari ishtirokidagi yalpi majlisi. [10, 276]

Maydon qurshovini tashkil etuvchi elementlar sirasiga forum, konferensiya, anjuman, sessiya, qurultoy kabi leksemalar ham kiradi. “Keng vakolatga egalik” semasi bu leksemalarni birlashtiruvchi va ayni paytda maydonning boshqa leksemalaridan farqlovchi sema vazifasini bajaradi. Ya‘ni, yig‘ilish, forum [konferensiya, sessiya, qurultoy] oppozitsiyasida yig‘ilish farqlovchi belgiga ega emas, forum [konferensiya, sessiya, qurultoy] esa mazkur belgi bilan markalangan.

O‘z navbatida forum va konferensiya leksemalarining o‘zaro zidlanishini “muayyan masalaga bag‘ishlanganlik” differensial semasi yuzaga keltiradi. Ayni vaqtda kengash va anjuman leksemalari ham o‘zaro zidlanadi. Ular “uslubiy xoslik” semasi asosida birlashsa-da, uning turlicha tarkibiy qismlariga xosligi bilan ekvipolent oppozitsiyani namoyon etadi. Konferensiya ilmiy uslubga, anjuman badiiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi. Forum, konferensiya va anjuman leksemalari sememasiga xos “keng vakolatga egalik” semasi ba‘zan xalqaro mohiyat kasb etadi, u vaqtda bu leksik birliklar xalqaro aniqlovchisini olib keladi. Masalan: xalqaro forum, xalqaro anjuman.

Shuningdek, anjuman, sessiya zidlanishida “muayyan davr” semasi, sessiya, qurultoy oppozitsiyasida esa “sohaga xoslik” va boshqa semalar farqlovchi belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Quyida ushbu so‘zlar izohini ko‘rib o‘tamiz.

Forum — Keng vakolatli yig‘ilish, anjuman. [11, 359].

Konferensiya — Biror masalani muhokama qilish, hal etish uchun hukumat, partiya, ijtimoiy, ilmiy va shu kabi tashkilot vakillarining muayyan masalaning muhokamasi va yechimiga bag‘ishlangan majlisi, yig‘ilishi. [9, 404]

Anjuman — Umuman biror hodisa, tantana munosabati bilan bo‘ladigan yig‘in, majlis. [8, 85]

Sessiya — Ish, mashg‘uloti davriy ravishda amalga oshiriladigan vakolatli organlarning, sud yoki jamiyatlarning ish, yig‘ilish o‘tkazadigan davri. [10, 491]

Qurultoy — O‘zbekistonda hozir: biror soha vakillari ishtirokidagi respublika miqyosida o‘tkaziladigan katta yig‘ilish. [12, 385]

Kongress, sammit, assambleya, simpozium leksemalari maydon qurshovining boshqa uzvlaridan “xalqaro” semasi bilan farqlanadi. Maydonning boshqa a‘zolari bu belgiga ega emas yoki neytral bo‘lsa, ushbu leksemalar farqlovchi belgiga ega, markalangan. Shuning uchun ular tarkibida “xalqaro” semasi ishtirok etadi. O‘z navbatida bu leksemalar ichki farqlanish belgisiga ham ega. Kongress, sammit oppozitsiyasida “davlat boshliqlari”, “oliy darajali kengash” semalari zidlanishga asos sifatida xizmat qiladi. Zidlanishning birinchi a‘zosi bu belgiga ega, markalangan, ikkinchi a‘zosi ega emas. “Xalqaro” semasi asosida kongress, sammit leksemalari bilan bir guruhga birlashuvchi assambleya leksemasi o‘z navbatida “yalpi yig‘ilish” semasi bilan farqlanadi. Ya‘ni dastlabki ikki leksema bu belgiga ega emas, assambleya leksemasi ega. Ushbu uch leksemaga nisbatan simpozium leksemasi “ilmiy masalaga bag‘ishlanganlik” semasi asosida farqlanadi. Bunda assambleya va sammit leksemalari differensial belgiga ega emas, kongress leksemasi neytral munosabatda, simpozium leksemasi esa farqlovchi belgiga ega hisoblanadi.

Aytish mumkinki, yuqoridagi to‘rt leksema “xalqaro” umumiy semasi asosida “yig‘ilish” mikromaydonining navbatdagi kichik guruhini tashkil etadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu leksemalar quyidagicha izohlangan.

Kongress — 1. Muhim siyosiy, ilmiy va boshqa masalalar yuzasidan o‘tkaziladigan xalqaro konferensiya, kengash. [9, 398]

Sammit — Ikki yoki bir necha davlat boshliqlarining muhim xalqaro masalalar bo‘yicha uchrashuvi, oliy darajadagi kengash. [10, 435]

Simpozium — Biror ilmiy masala bo‘yicha o‘tkaziladigan xalqaro ilmiy kengash, ilmiy anjuman.

[10, 507]

Assambleya soʻzining yuqorida taʼkidlangan manbadagi izohi qoniqtirmagani uchun, boshqa manbaga murojaat qilindi.

Assambleya — Biror xalqaro jamiyatning yoki bir qancha davlat vakillarining diplomatik va boshqa xarakterdagi yalpi majlisi. [7, 47]

Yigʻin, miting leksemalari ham “toʻplanish”, “shaxslarga xoslik”, “muhokama” semalariga ega boʻlib, “yigʻilish” mazmuniy maydoni tarkibidan joy olgan. Yigʻilish, yigʻin [miting] leksemalarining oppozitsiyasida “norasmiylik” differensial sema hisoblanadi. Yigʻilish leksemasi bu farqlovchi belgiga ega emas, lekin yigʻin va miting leksemalari farqlovchi semaga ega boʻlib, ular mazmuniga xos toʻplanish rasmiy emas. Ayni vaqtda “norasmiylik” belgisi yigʻin va miting leksemalari uchun integral sema vazifasini ham oʻtaydi. Bunda ular oʻrtasidagi zidlanishni “muhim voqea”, “uslubga xoslik” semalari yuzaga keltiradi. Yaʼni, yigʻin leksemasi bu belgilarga nisbatan neytral, markalanmagan, miting leksemasi esa qayd etilgan belgilarga ega boʻlib, ilmiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi.

Bu leksemalarga “Oʻzbek tili izohli lugʻati”da quyidagicha izoh berilgan.

Yigʻin 1. Kishilarning fikr olishuvi yoki biror masalani hal qilish uchun toʻplanishi. [9, 272]

Miting — Biror muhim voqeaga, koʻpincha siyosiy masalalarni muhokama etishga bagʻishlab oʻtkaziladigan ommaviy yigʻin. [9, 602]

Yuqoridagi tahlilga asoslanib, quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin.

“Yigʻilish” arxisemali mazmuniy maydonning barcha leksemalari uchun “shaxslarga xoslik”, “toʻplanish” va “muhokama” semalari barqaror belgi hisoblanadi.

“Rasmiylik” va “uslubiy xoslanganlik” semalari ham mazmuniy maydon leksemalarining sememasida eng koʻp takrorlangan. Shundan “rasmiylik” semasi ikki marta farqlovchi, oʻn uch marta birlashtiruvchi; “uslubiy xoslik” esa uch marta farqlovchi, oʻn ikki marta integral belgi sifatida namoyon boʻlgan.

Yigʻilish, kengash; konferensiya, anjuman; yigʻin, miting kabi leksemalar oppozitsiyasida differensial belgi sifatida namoyon boʻluvchi “uslubga xoslik” semasi ularning oʻzaro sinonim leksemalar ekanligini koʻrsatadi.

Differensial semalarga nisbatan eng koʻp neytral munosabatda boʻlgan leksemalar yigʻilish va kengash leksemalari boʻlib, ular ushbu paradigmaga mansub soʻzlarga xos maʼnoni eng umumiy tarzda ifoda etadi. Shuning uchun nutqda ularni erkin qoʻllash mumkin. Masalan, forum qatnashchilari – yigʻilish qatnashchilari, sammitda koʻtarilgan masalalar – kengashda koʻtarilgan masalalar, xalqaro konferensiya – xalqaro yigʻilish va hokazo shakllarida muqobil qoʻllana oladi.

Mutlaqo yoki eng kam differensial semaga ega boʻlgan yigʻin va miting leksemalari maydon markazidan eng uzoqda turuvchi, yaʼni “yigʻilish” leksemasidan mazmunan uzoqlashgan leksemalar hisoblanadi.

“Ijtimoiylik” maydoniga mansub “yigʻilish” arxisemali mikromaydon qurshovidagi leksemalarni quyidagi asosiy differensial belgilar asosida LSGlarga ajratish mumkin:

- “uslubiy xoslanganlik” semasiga koʻra: yigʻilish, kengash;
- “tashkilot” miqyosi semasiga koʻra: majlis, plenum;
- “keng vakolat” semasiga koʻra: forum, konferensiya, anjuman, sessiya, qurultoy;
- “xalqaro miqyos” semasiga koʻra: kongress, sammit, assambleya, simpozium;
- “norasmiylik” semasiga koʻra: yigʻin, miting.

2-chizma

Leksem a	Rasm iylik	Uslu bga xosli k	Tashki lotga xoslik	Ken g vak olat	Xalq aro	Davlat vakill ariga xoslik	Soh aga xosl ik	Yal pi ma jlis	Muayya n masalag a bagʻishl angan	Muay yan davr	Ilmiy masa laga xosli k
Yigʻilis h	+	0	0	0	0	0	0	0	0	-	-
Kengas h	+	+	0	0	0	0	0	-	0	0	-
Anjuma	+	+	-	0	0	0	0	-	+	0	0

n												
Majlis	+	0	+	-	-	-	0	0	0	-	-	-
Plenum	+	+	+	-	-	-	+	+	0	+	-	-
Forum	+	+	-	+	0	0	0	-	0	-	0	0
Konferensiya	+	+	0	+	0	-	0	-	+	0	0	0
Sessiya	+	+	-	+	-	+	-	+	0	+	-	-
Qurultoy	+	+	-	-	-	-	+	-	+	+	+	0
Assambleya	+	+	-	+	+	+	-	+	-	0	-	-
Sammit	+	+	-	+	+	+	-	-	+	-	-	-
Kongress	+	+	-	+	+	0	-	-	0	-	0	0
Simpozium	+	+	-	+	+	0	+	-	+	0	+	+
Yig'in	-	0	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Miting	-	+	-	-	-	-	-	-	+	-	-	-

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Iskandarova Sh. Til sistemasiga maydon asosida yondashuv. – T.: “Fan”, 2007.
2. Апресян В.Ю. Опыт кластерного анализа: русские и английские эмоциональные концепты // Вопросы языкознания. – Москва, 2011. – № 1.
3. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984.
4. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – B. 9.
5. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.
6. Hamrayeva Yo. O'zbek tili ideografik lug'atini tuzish tamoyillari: Filol. fanlari nomzodi ... diss. avtoref. – Toshkent, 2009.
7. Usmonov O., Doniyorov R. Ruscha–internatsional so'zlar izohli lug'ati. – T.: “O'zbekiston”, 1972.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2006. – 1-jild.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2006. – 2-jild.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2007. – 3-jild.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2008. – 4-jild.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., 2008. – 5-jild.